

**BYUDJET TASHKILOTLARIDA SMETA TUZISH VA TASDIQLASH
TARTIBI TAKOMILLASHTISH**

Ishonkulov Nizamjon Fayzullaevich - dotsent

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bo'lim boshlig'i*

Sarimov Islomjon Ibraim o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi tinglovchisi
sarimovislom@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqola byudjet tashkilotlarida smeta tuzish va tasdiqlash tartibi takomillashtish haqida so'z yuritilgan. Budget tashkiloti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirish uchun davlat budjetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkiloti hisoblanadi.

Kalit so'zlar: iqtisod, byudjet, smeta tuzish, xarajat, moliyalashtirish, moddiy-texnika baza, davlat siyosati.

Abstract. This article talks about the improvement of the procedure for creating and approving estimates in budget organizations. A budget organization is a ministry, a state committee, an office, a state organization that is supposed to allocate funds from the state budget for the implementation of its activities related to the performance of the tasks assigned to it, and this fund is considered the main source of financing.

Key words: economy, budget, estimation, cost, financing, material and technical base, state policy.

Абстракт. В данной статье говорится о совершенствовании порядка составления и утверждения смет в бюджетных организациях. Бюджетная организация – это министерство, государственный комитет, ведомство, государственная организация, которые должны выделять средства из государственного бюджета на осуществление своей деятельности, связанной с выполнением возложенных на нее задач, и этот фонд считается основной источник финансирования.

Ключевые слова: экономика, бюджет, смета, стоимость, финансирование, материально-техническая база, государственная политика.

Mamlakatimizda mustaqillikning ilk kunlaridan byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish mexanizmini isloh qilishga, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilib, qator chora tadbirlar amalga oshirildi. Davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlanadigan qator ijtimoiy sohalar: ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy ta'minot, davlat boshqaruvi organlari muassasa va tashkilotlari budjet tashkiloti maqomida faoliyat qiladi. Davlat byudjetining katta miqdori ham aynan shu sohalarni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modelida moliyaviy-iqtisodiy inqirozning kelib chiqishi va salbiy oqibatlari ta'siriga qarshi tamoyillarning mujassam ekanligi. Islohotlarning izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi. Davlatning bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi. Mamlakatimizda [moliyaviy-iqtisodiy](#), byudjet, bank-kredit tizimi hamda real sektor korxonalar va tarmoqlarining barqarorligini ta'minlash uchun yetarli zaxiralar yaratilganligini, [jumladan](#), O'zbekistonda 2022-yilning o'tgan davrida o'rtacha oylik ish haqi qancha bo'lgani ma'lum qilindi. 2022-yilning yanvar - mart oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi o'tgan yillarning mos davri bilan solishtirganda o'zining eng yuqori natijasini qayd etdi - 3,4 million so'm.

Nominal hisoblangan ish haqi - ish beruvchining ma'lum bir vaqt davomida ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar bajarilgani yoki xizmat ko'rsatilganligi) uchun hisoblangan amaldagi qonunlarga muvofiq soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga olgan naqd pul shaklida jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromad. Dastlabki 3 oydagi eng past ko'rsatkich yanvar oyida kuzatilgan - 3,2 mln so'm. Yanvar - mart oylaridagi eng yuqori o'rtacha oylik ish haqi bank, sug'urta, lizing va kredit vositachilik faoliyatida qayd etilgan - 8,4 mln so'm. Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik ish haqi 6,5 mln so'mga teng bo'lgan bo'lsa, tashish va saqlash sohasida - 4,5 mln so'm, sanoat sohasida - 4,4 mln so'm. Eng past o'rtacha ish haqi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida qayd etilgan - 2,3 mln so'm. Bank, sug'urta, lizing va kredit vositachilik faoliyatida eng yuqori o'rtacha ish haqi Toshkent shahrida (10,7 mln so'm), eng past Samarqand viloyatida (5,5 mln so'm) kuzatilgan. Sanoat sohasida eng yuqori o'rtacha ish haqi Navoiy viloyatida (7 mln so'm), eng past Jizzax viloyatida - (2,7 mln so'm). Ta'lim sohasida eng yuqori o'rtacha oylik ish haqi Toshkent shahrida (3,7 mln so'm), eng past Qashqadaryo viloyatida (2,2 mln so'm)ni tashkil etgan. [Namangan](#), Andijon, Toshkent viloyatlarida (2,5 mln so'm) ish haqi respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan. Boshqa hududlarda o'rtacha oylik ish haqi nisbatan past. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida eng yuqori o'rtacha oylik ish haqi Toshkent shahrida (2,9 mln so'm), eng past - Qashqadaryo viloyati (1,9 mln so'm). Respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan past holat olti viloyatda kuzatilgan. O'zbekiston iqtisodiyotidagi byudjet jarayonni nazariy jihatdan tadqiq qilish hamda byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalining buxgalteriya hisobi xususiyatlarini bozor munosabatlari talablari va mezonlari darajasida tashkil qilish va takomillashtirish, uslubiy [jihattan asoslab berish](#), byudjet tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalining hozirgi davr shart-sharoitlariga mos keladigan qoidalarini ishlab chiqish zaruratini talab etmoqda.

Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalining buxgalteriya hisobi xususiyatlarini tashkil etish va uni takomillashtirishni nazariy asoslash hamda aniq tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu yo'nalish maqsadlari uchun quyidagicha vazifalar belgilanadi:

- tasdiqlangan byudjet parametrlari xarajatlar smetalari va shtatlar jadvali doirasida birinchi va ikkinchi guruhlariga kiritilgan to'lovlarni birinchi navbatda belgilangan vaqtda to'liq moliyalashtirishni aniqlash;

- uchinchi guruh bo'yicha kapital qo'yilmalar xarajatlarini investitsiya dasturiga kiritilgan obyektlarning manzilli ro'yxatlari bo'yicha o'rnatilgan moliyalashtirish rejalari [doirasida amalga oshirish](#);

- xarajatlarning to'rtinchi guruhiga kiritilgan ustuvor to'lovlar, oziq -ovqat va dori-darmonlar sotib olish xarajatlarini birinchi va ikkinchi guruh to'lovlari to'liq amalga oshirilgandan keyingina belgilab berish;

- huquqiy shaxs maqomi berilgan byudjet tashkilotlarining faoliyatlarini mustaqil ravishda amalga oshirishlari uchun buxgalteriya hisobi xususiyatlarini hisobga olish tartibini aniqlash.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning byudjetdan ajratilgan mablag'lar bo'yicha xarajatlar smetasini va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek shtatlar jadvalini tuzish va ro'yxatdan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 29-oktyabrdagi 92-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi [va shtatlar jadvalini tuzish](#), ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom" Adliya vazirligi tomonidan 2010-yil 19-noyabrda 2157 son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Byudjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va budjetdan moliyalashtirish xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi. Xarajatlar smetasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash, ro'yxatdan o'tkazish, moliyalashtirish uchun qabul qilish tartiblari Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, Moliya vazirligining buyruqlari va tegishli tarmoq vazirliklarining me'yoriy hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan. Lekin oxirgi yillarda davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so'nggi natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tamoyillarining joriy qilinishi, o'rta muddatli budjet istiqbollari belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat budjetining g'azna ijrosi mexanizmlarining joriy etilishi, budjet mablag'lari hisobidan davlat xaridlarini tashkil etish tartiblarining belgilanishi va budjet siyosatidagi boshqa o'zgarishlarning amalga oshirilishi budjet tashkilotlari xarajatlarini aniq rejalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etmoqda. Respublikamizda xarajatlar smetasidan samarali foydalanish borasidagi asosiy kamchiliklar byudjet tizimining kengligi, xarajatlar smetasini tuzishning va g'aznachilik tizimining shaffof emasligida namoyon bo'lmoqda. Ayrim hollarda xarajatlar smetasini shakllantirish tamoyillarining buzilishi, xarajatlarning rag'batlantirish vazifasini to'laqonli bajarmayotganligi holatlari kuzatilmoqda. Natijada byudjet tashkilotlarining moliyaviy tang holatlarga tushishiga ham yuz bermoqda. Byudjetdan moliyalashtirish deyilganda rejada ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun sub'ektlarga byudjetdan mablag'larni taqdim etish tizimi tushuniladi. U pul mablag'larini taqdim etishning o'ziga xos bo'lgan

shakl va metodlari bilan xarakterlanadi hamda ma'lum bir printsiplarga tayanadi. Xarajatlar smetasi byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchi tomonidan moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan, uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar xarajatlar moddalari bo'yicha aks ettiriladigan hujjat hisoblanadi.

Demak, smeta notijorat faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotning maqsadga yo'naltirilganligi nuqtai nazaridan pul mablag'larining tashkil topishi va sarflanishi to'g'risidagi axborotni o'zida mujassamlashtiruvchi moliyaviy rejasidir. Ish haqini to'lashga va joriy faoliyatga xarajatlar byudjetdan ajratilganligini, shuningdek mablag'larning maqsadlilik va choraklar bo'yicha taqsimoti hajmini belgilovchi hujjatdir. Xarajatlar smetasi mohiyatini quyidagi rasm ma'lumotlaridan ham kengroq tushunish mumkin.

Byudjet mablag'lari hisobot choragida tejab qolinsa, tashkilotlarni kelgusi choraqda mablag' bilan ta'minlash hajmi kamaytirilmaydi. Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarga tegishli moliya yili uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmini etkazish tegishli moliya organlari yoki byudjet mablag'larini taqsimlovchilari tomonidan byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga tegishli moliya yili uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmini etkazish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Budjet hisoboti budjet hisobi ma'lumotlari asosida belgilangan shakllar bo'yicha tuziladigan aktivlar va majburiyatlarning holati to'g'risidagi ma'lumotlarning umumlashtirilgan tizimidir. Budjet hisobotining yagona uslubiyati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan Budjet kodeksi, budjet hisobining standartlariga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Budjet hisobining standartlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Budjet tashkilotlari tomonidan budjet hisobi va budjet hisobotining yagona uslubiyatiga rioya etilgan holda budjet hisobining batafsil bo'lishini ta'minlaydigan ichki idoraviy hujjatlar qo'llanilishi mumkin. Budjet tizimi budjetlari ijrosining budjet hisobi: moliya organlari; g'aznachilik bo'linmalari; davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlari; budjet tashkilotlari; davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan yuritiladi. Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi bo'yicha budjet hisobi kassa usuli bo'yicha yuritiladi.

Budjet tizimi budjetlari – Budjet tizimi barcha darajadagi (O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari) budjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi, Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasining Bandlikka

ko'maklashish davlat jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi) budjetlari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari(budjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi, Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalari, budjet tashkilotlarining undiriladigan to'lovlar hisobiga shakllantiriladigan budjetdan tashqari mablag'lari) jamg'armalari, budjet tizimi budjetlarini tuzish va tashkil etish printsiplari, ular o'rtasida budjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar yig'indisini o'zida ifodalaydi/

Budjet hisoboti quyidagi hisobot turlarini o'z ichiga oladi: budjet tashkilotlarining va budjet mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari; Davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlariga daromadlarning tushumlari to'g'risidagi hisobot; Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot; davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot. Budjet hisobotlarini tuzishning bir qator o'ziga xos hususiyatlari mavjud. Bular, avvalo davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari budjetini tuzish va ijro etish printsiplariga va boshqa bir qator omillarga bevosita bog'liqdi.

Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot tashkilotlar tomonidan hisobot davri mobaynida faoliyat turiga muvofiq mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlarni, vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mulklarini ijaraga berishdan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotlariga ko'rsatilgan homiylik (beg'araz) yordamlar hisobidan tushgan tushumlarni, shuningdek hisobot choragining oxirgi ish kunida tejab qolingan va rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilgan budjet mablag'lari harakatini aks ettirish uchun tuziladi. Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot shaklini tuzishdan oldin tashkilotlar: - hisobot choragi mobaynidagi faoliyat turiga muvofiq mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotishga, vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mulklarini ijaraga berishga, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotlariga ko'rsatilgan homiylik (beg'araz) yordamlarga, shuningdek hisobot choragining oxirgi ish kunida tejab qolingan budjet mablag'lariga doir dastlabki hujjatlarni to'liqligini; - hisob raqamlardan olingan ko'chirmalarni va tegishli hisob registrarlari ma'lumotlarini to'g'riligini tekshirib chiqadilar.

Budjet tashkilotlari tomonidan daromadlar va xarajatalar smetalarini ishrosini amalga oshirish jarayonida jismoniy va yuridik shaxslar bilan hisoblashuvlarni amalga oshiradi. Bu hisoblashlarning provard natijasi debitorlik va kreditorlik majburiyatlar bo'yicha hisoblashuvlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Debitorlik

majburiyat – bu boshqa korxonalarni, (haridorlarga sotilgan mahsulot (ish va xizmatlar), mol yetkazib beruvchilarga oldindan to‘langan mablag‘lar va boshqalar bo‘yicha), budjet, budjetdan tashqari jamg‘armalarni (soliqlar, majburiy ajratma va ushlanmalar bo‘yicha oldindan to‘langan mablag‘lar bo‘yicha) xodimlarni (hisobini berish sharti bilan olingan mablag‘lar va boshqalar bo‘yicha) tashkilot oldidagi qarzdorligidir. Kreditorlik majburiyat– bu tashkilotning boshqa korxonalardan (xaridorlarga sotilgan mahsulot (ish va xizmatlar) uchun olingan avanslar, mol yetkazib beruvchilardan olingan mahsulot(ish va xizmatlar) va boshqalar bo‘yicha), budjet, budjetdan tashqari jamg‘armalardan (soliqlar, majburiy ajratma va ushlanmalar bo‘yicha), xodimlardan (ish haqi va unga tenglashtiriladigan to‘lovlar va boshqalar bo‘yicha) qarzdorligidir. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan ular yetkazib bergan tovar moddiy qimmatliklari, bajargan ishlari va ko‘rsatgan xizmatlari uchun olib boriladigan hisob-kitoblar, byudjet hamda ijtimoiy sug‘urta to‘lovlariga ajratmalar bo‘yicha, kasaba uyushma tashkilotlari, hisobdor shaxslar, xodimlar, stipendiya oluvchilar, deponent qilingan summalar, ta‘lim muassasalarida bolalarni saqlaganlik uchun ularning ota-onalari, shuningdek boshqa debitor va kreditorlar bilan hisobkitoblar hisobi budjet tashkilotlarida debitorlar va kreditorlar hisobi ko‘rinishida yuritiladi.

Budjet tashkilotlarini budjet mablag‘lari hisobidan shartnomalari faqat xarajatlarni qoplashga manbaning mavjudligi to‘g‘risidagi tasdiqnoma va ushbu maqsadlarga ajratilgan budjet mablag‘lari (limitlari) mavjud bo‘lgan xarid hajmigagina tuzilishi mumkin. Debitorlik va kreditorlik qarzlari bo‘yicha kelishmovchiliklar mavjud bo‘lgan taqdirda tashkilot ularni bartaraf etish maqsadida tushunmovchiliklar haqidagi materiallarni tegishli idoralarga taqdim etishi shart. Qarzdorning undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan mol-mulki yoki daromadlari yo‘qligi tufayli ijro hujjatlari tashkilotga qaytarilgan taqdirda, ushbu qarzlari tashkilot rahbari ruxsati bilan belgilangan tartibda hisobdan chiqariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Т.Маликов, Н.Хайдаров. Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. 2007
2. Т.С. Маликов, Н.Х. Хайдаров. Финансы: государственные финансы. Учебное пособие. Экономика и финансы. Ташкент. 2009.
3. Н.Х.Хайдаров. Роль иностранных инвестиций в финансовом оздоровлении Узбекистана. Финансы и кредит, 2001.
4. Хайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Т.: Иқтисод-молия, 2009.
5. Ergash o‘g‘li, Q. F. (2022). CREATION OF ELECTRONIC MEDICAL BASE WITH THE HELP OF SOFTWARE PACKAGES FOR MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS. Conferencea, 128-130.
6. Ergash o‘g‘li, Q. F. (2022). IMPORTANCE OF KASH-HEALTH WEB PORTAL IN THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS. Conferencea, 80-83.
7. Qodirov, F., & Muhitdinov, X. (2022). Features that increase efficiency in the provision of medical services and factors affecting them. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(7), 192-199.

8. Ergash o'g'li, Q. F. (2022). ECONOMETRIC MODELING OF THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION OF THE REGION. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.1 Economical sciences).
9. Nematov, J. (2022). MYBOOK. UZ VIRTUAL KUTUBXONA TIZIMINING IMKONIYATLARI VA XUSUSIYATLARI. Current approaches and new research in modern sciences, 1(5), 56-60.
10. Tulqin o'g'li, U. M., Zokir o'g'li, S. B., & Ergash o'g'li, Q. F. (2022). BIRINCHI VA IKKINCHI TARTIBLI HUSUSIY HOSILALAR. TO'LA DIFFERENSIAL. TAQRIBIY HISOBLASH. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 153-158.
11. Tulqin o'g'li, U. M., & Ergash o'g'li, Q. F. (2022). SONLI QATORLAR.(MUSBAT HADLI QATORLARNING YAQINLASHISH TEOREMALARI. LEYBNIS TEOREMASI, ABSOLYUT VA SHARTLI YAQINLASHISH.). TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 137-151.
12. Tulqin o'g'li, U. M., & Ergash o'g'li, Q. F. (2022). YER OSTI SUVLARINING FIZIK XOSSALARI, KIMYOVIY TARKIBI, HARA KATI VA GRUNTLARNING SUV O'TKAZUVCHANLIGI, FILTRATSIYA QONUNI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 219-222.
13. Tulqin o'g'li, U. M., & Ergash o'g'li, Q. F. (2022). VEKTOR VA SKALYAR MAYDONLAR. GRADIYENT VA YO'NALISH BO'YICHA HOSILA. DIVERGENSIYA VA ROTOR. SATH CHIZIQLARI. GRADIYENT MAYDONLAR. OQIMLAR. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 172-187.
14. Tulqin o'g'li, U. M., & Ergash o'g'li, Q. F. (2022). FURE QATORI VA UNING TADBIQLARI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 21-33.
15. Tulqin o'g'li, U. M., & Ergash o'g'li, Q. F. (2022). DARAJALI QATORLAR. DARAJALI QATORLARNING YAQINLASHISH RADIUSI VA SOHASI. TEYLOR FORMULASI VA QATORI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 8-20.
16. Tulqin o'g'li, U. M., & Ergash o'g'li, Q. F. (2022). STOKS FORMULASI. SIRT INTEGRALLARI TADBIQLARI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 34-45.
17. Tulqin o'g'li, U. M. (2022). FURYE QATORI. FUNKSIYALARNI FURYE QATORIGA YOYISH.
18. Tulqin o'g'li, U. M., & Ergash o'g'li, Q. F. (2022). BIR JINSLI VA BIR JINSLIGA OLIB KELINADIGAN DIFFERENSIAL TENGLAMALAR. AMALIY MASALALARGA TADBIQI (KO'ZGU MASALASI). BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(1), 263-267.